O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI

TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

"TASDIQLAYMAN"
Rektor ________ Sh.Sirojiddinov
2022-yil "___" ____-avgust

# "ADABIY TAHRIR"

**fanining o'quv dasturi (sillabusi)**

| | |
|---|---|
| Bilim sohasi: | 600 000 – Xizmatlar sohasi |
| Ta'lim sohasi: | 610 000 - Xizmat ko'rsatish sohasi |
| Bakalavr mutaxassisligi:noshirlik | 5611600 - Noshirlik ishi |

Toshkent-2022

| Fan/modul kodi 302AT 2 4 | Fan/modul turi majburiy | Ta'lim tili o'zbek | Ishlab chiqilgan o'quv yili 2022/2023 |
|---|---|---|---|

| Semestr | Har bir semestrdagi modulning nomi | ECTS - Kreditlar | Haftalik dars soatlari | O'quv mashg'ulotlari (soat) | | | | | Mustaqil ta' lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | Jami: | ma' ruza | seminar | amaliy | laboratoriya | | |
| 1 | | 4 | 4 | 60 | 10 | | 50 | 0 | 60 | 120 |
| | Jami: | 4 | 4 | 60 | 10 | | 50 | 0 | 60 | 120 |

## 1. FANNING MAZMUNI

Adabiy tahrir asoslari ilmi uzoq tarixga ega. Dastlab qadimgi Rimda yuzaga keladi. Uning yuzaga kelishiga ayni bir sohaga oid adabiyotning turli namunalarida har xillikning mavjudligi sabab bo'ladi. Shunga ko'ra tayyorlanayotgan kitoblarni soha mutaxassislari tomonidan ko'rib chiqish, turli variantlarni bir xillashtirish zarurati tug'iladi, bundan tashqari ularda grammatik hatoliklar ham ko'plab uchraydi. Buning natijasida ularni to'g'rilash, tuzatishga to'g'ri keladi. Shunday qilib matnni tahrir qilish boshlanadi. Fanning maqsadi ayni bir mavzuga oid asarlardagi har xillikni, imloviy, grammatik hatolarni, shuningdek uslubiy va mantiqiy kamchiliklarni bartaraf etishni o'rganish va o'rgatishdir

## 2. FANNI O'QITISH NATIJALARI VA SHAKLLANADIGAN KASBIY KOMPETENSIYALAR

Mazkur fanning vazifasi adabiy asar matnining mavzuga muvofiqligini, g'oyaviy, badiiy, estetik, jihatdan talab darajasida bo'lishini ta'minlash. Shuningdek asar asosiy va qo'shimcha unsurlarining Adabiy tahrir asoslari ilmi nuqtai nazaridan maqsadga muvofiqligini ta'minlashdan iboratdir.

***Talaba:***

Yozuv tarixi, kitobat ishi, Adabiy tahrir asoslari ilmining tarixiy taraqqiyoti, adabiy asar turlari, ularning tahriri, tahrir jarayonida muharrir amalga oshiradigan ishlar, asar arxitektonikasi, bayon turlari, ilmiy apparat va ularning tahriri, matnni ikki bosqichi, birinchisi, mikrotahrir va ikkiknchisi makrotahrir, shuningdek matnning mantiqiy qonunlar asosida tahrirdan chiqarish, qo'lyozmani sahifalash, asarning chop etilishi haqidagi ma'lumotlar-annotatsiya, so'z boshi, kirish, so'ng so'z va iqtiboslarni manbalarga ko'ra aniqlash haqida malakaga ega bo'lishi talab etiladi.

Asar muallifining individual uslubini, qo'lyozma o'zi mansub bo'lgan adabiy tur talablari, uslubi darajasida yaratilganligini, nashr rejasiga to'liq mos ekanligini aniqlash uchun talabalar quyidagilar bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishlari zarur:

- asar qo'lyozmasini baholay olish, yani uni nashr etishga loyiq yoki loyiq emasligi haqida xulosa chiqarish;
- qo'lyozma nashr rejasiga to'liq mos ekanligini aniqlay olish;
- asar kompozitsiyasi mukammalligi, qismlar, boblar, fasllararo mantiqiy bog'liqligini belgilash;

- adabiy nutq me'yorlariga amal qilinganlik darajasini aniqlash;
- asar turi bo'yicha uslubga to'liq amal qilinganligini baholay olish;
- sarlavhalar va matn mantiqan bog'liqligini ko'rsata bilish;
- keltirilgan iqtiboslar muallif fikri bilan mutanosibligini aniqlay olish;
- qo'lyozmada keltirilgan asos materiallar maqsadga muvofiq ekanligini aniqlay olish;
- asraning ilmiy va badiiy jihatdan yangiligini farqlay bilish;
- asarning raqobatbardoshligi, bozor talablariga to'liq javob berishligini belgilay olish.
- Bular esa talabalarning Adabiy tahrir asoslari ilmidan to'liq habardor bo'lish, asar matnini til, uslub, janr jihatdan tahlil etish malakasiga ega bo'lishlarida muhim omil hisoblanadi.

## 3. O'QUV FANI O'QITILISHI BO'YICHA USLUBIY KO'RSATMALAR

ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni tayyorlash;
- individual loyihalar;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

## 4. TALABALAR KREDITLARNI OLISH TARTIBI

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.

**Nazoratlarni amalga oshirish tartibi va baholash mezonlari**

**Baholash mezonlari**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2018-yil 26-sentabrdagi 3069-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi" nizomga muvofiq ishlab chiqildi. Baholash ON, YN dan iborat.

A. Baholash

1) ON (oraliq nazorat) – 40 %, jumladan:

– ma'ruzalarda faol ishtirok etish – 5%,

– amaliy topshiriqlarni bajarish – 5%,

– mavzular yuzasidan test bajarish – 30%;

2) YN (yakuniy nazorat) testini bajarish – 60%.

B. Baholash

| Baholash usullari | Og'zaki so'rov, taqdimotlar, yozma topshiriqlar |
|---|---|
| Fan bo'yicha talabalar bilimini nazorat qilish va baholash | Nazorat shakllari<br>Baholash turlari og'zaki va yozma so'rovlar, og'zaki savol-javob, yozma ish, test ko'rinishida o'tkazilishi mumkin.<br>Baholashda, asosan, mustaqil fikrlash va tanqidiy mulohazani o'zida ifodalagan mukammal ish bajarilishi inobatga olinadi. Qo'yilgan masalalar talaba tomonidan tegishli metodologiya, uslub va ma'lumot manbalaridan foydalangan holda, ishonchli dalillar asosida ochib berilishiga e'tibor qaratiladi. |

| | |
|---|---|
| 5 (A)<br><br>100 – 86 | Ish yetarli darajada mustaqil va tanqidiy fikr-mulohazalarni, analiz va sintez qilish qobiliyatini, mantiqiy izchillikni, qator manbalardan foydalanilib keng mushohada yuritishni hamda mavzuni mukammal tushunishni namoyon etadi. Shuningdek, ish juda yaxshi tadqiq qilinib, javobda asosli mulohazalar bildirilgan bo'ladi. Ushbu ish original va talqin mohirona olib borilganligi, tadqiqot tanqidiy tahlil va tanqidiy baholash orqali zarur tadqiqot metodologiyasi, uslublari va manbalaridan foydalanilgan holda yondashilganligi bilan ajralib turadi. Ish yuqori ta'lim standartlari asosida yozilgan bo'lib, birmuncha tahrir qilish orqali mukammal darajaga yetkazilishi mumkin. |
| 4 (B)<br><br>85 – 71 | Ish mavzuning aniq anglanganligi va tadqiqot sohasidagi munozaralarda tanqidiy ishtirok etish imkoniyatini ifoda etib, malakali va metodologik xususiyatga ega. Asosiy mulohazalar aniq, misollar hamda asoslar o'rinli qo'llanilgan. Ish "A" darajadagi ishlarga qaraganda pastroq sifatda va unchalik original emas. Ishda fikrlar yaxshi tartibda keltirilgan, bayon aniq hamda mantiqan izchil, kirish va xulosa qismlari ravon ifodalangan. Manbalardan yuqori darajadagi ishlardek tizimli yondashilmagan bo'lsa-da, o'rinli qo'llanilgan. Ish "A" darajadagi ishlar kabi izchil bo'lmasa-da, tahliliy qobiliyatni namoyon etadi. Ushbu ish yaxshi ta'lim standartlarini o'zida ifodalagan holda jiddiy grammatik va sintaktik xatolardan holi ravishda yozilgan. |
| 3 (C)<br><br>70 – 56 | Ishda ishonchli talqin va asoslar keltirishda xatolarga yo'l qo'yilgan. Savolga qisman javob berilgan. Ish asosan bayoniy tarzda (tahlildan holi) ifodalangan. Mantiqiy bog'lash yetarli darajada emas. Ba'zi xulosalar xato keltirilgan. Ushbu darajadagi ishlar muammo mavzusini bazaviy anglashni va bilimni qo'llash bo'yicha ma'lum ko'nikmalarni namoyon etadi. Manbalar ko'rsatilmagan yoki to'g'ri ko'rsatilmagan yoxud yetarli darajada ko'rsatilmagan. Ushbu ish qoniqarli talablar asosida, biroq bir qancha grammatik va sintaktik xatolarga yo'l qo'yilgan holda yozilgan. |
| 2 (D)<br><br>55 – 49 | Ish talabga javob bermaydi (nazoratdan o'tmagan).<br>Ishning katta qismida mavzudan chetga chiqilgan, markaziy fikr mavjud emas, manbalar va havolalardan noizchil yoki yetarli darajada foydalanilmagan hamda grammatik va sintaktik xatolarga takror-takror yo'l qo'yilgan. Mulohazalarni bazo'r fahmlash mumkin, juda yomon tartibda berilgan, fikrlarni anglab olish mushkul yoki anglashning imkoni yo'q. Ish mavjud g'oyalarni tanqidiy fikrlashsiz takrorlaydi. Ish ko'plab isbotlanmagan qarashlar va bayonotlarni o'z ichiga olib, dalillar keltirilmagan yoki asossiz va cheklangan. |

## 5. O'QUV MASHG'ULOTLARI VA MUSTAQIL TA'LIM QISMI

### 4-SEMESTR

**1. Ma'ruza mashg'ulotlari**

| № | Ma'ruza mavzulari | Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar) | Soatlar hajmi |
|---|---|---|---|
| | **1-bob (modul) mavzusi** Adabiy tahrirning mohiyati | | |
| 1 | Kirish. Adabiy tahrirning mohiyati, vazifasi va muharrirlik faoliyati | Adabiy tahrir, muharrirlik, faoliyat, mohiyat, vazifa | 1 |
| 2 | Adabiy tahrirning vazifasi | Adabiy tahrir, muharrirlik, faoliyat, mohiyat, vazifa | 1 |
| 3 | Muharrirning nashr jarayonidagi o'rni va ahamiyati | Nashr, jarayonlar, muharrirlik | 1 |
| | **2-bob (modul) mavzusi** Matn tahlili va tahriri | | |
| 4 | Matn tahlili va tahriri | Nashr, jarayonlar, muharrirlik | 2 |
| 5 | Muharrir va muallif munosabati | Muallif, munosabat | 2 |
| 6 | Matn bayoni usullari va turlari | Matn, bayoni, usullari , turlari | 1 |
| | | | |
| | **3-bob (modul) mavzusi** Matn tahririning mantiqiy asoslari | | |
| 7 | Matn tahririning mantiqiy asoslari | Matn tahririning mantiqiy asoslari | 1 |
| 8 | Asar kompozitsiyasi ustida ishlash | Asar, kompozitsiyasi, ishlash | 1 |
| | | **Jami:** | **10 s.** |

**2. Amaliy mashg'ulotlar**

| № | Amaliy mashg'ulot mavzulari | Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar) | Soatlar hajmi |
|---|---|---|---|
| | **1-bob (modul) mavzusi:** Noshirlik ishi tarixi, rivojlanish bosqichlari va istiqboli | | |
| 1 | Noshirlik ishi tarixi, rivojlanish bosqichlari va istiqboli<br>Muayyan asar qo'lyozmasi bilan tanishish | Asar ,qo'lyozma, istiqbol | 4 |
| 2 | Qo'lyozma (muallif matni) bilan tahrirdan chiqgan variantini qiyosiy tahlil qilish. | Qo'lyozma (muallif matni) bilan tahrirdan chiqgan variantini qiyosiy tahlil qilish. | 4 |
| 3 | Qo'lyozmaga nashryot tomonidan qo'yiladigan talablarni o'rganib chiqish. | Qo'lyozmaga nashryot tomonidan qo'yiladigan talablarni o'rganib chiqish. | 4 |
| | **2-bob (modul) mavzusi: Qo'lyozmani baholash** | | |
| 4 | Qo'lyozmani baholash | Qo'lyozmani bahollash | 4 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 5 | Qo'lyozma nashrga yaroqliligini asoslash | Qo'lyozma nashrga yaroqliligini asoslash | 2 |
| 6 | Qo'lyozmani qayta ishlash uchun muallifga qaytarish | Qo'lyozmani qayta ishlash uchun muallifga qaytarish | 2 |
| 7 | Qo'lyozmani nashrga loyiq emasligini asoslash | Qo'lyozmani nashrga loyiq emasligini asoslash | 4 |
| **3-bob (modul) mavzusi:** O'zbekistonda mustaqillik davrida noshirlik | | | |
| 8 | Turkistonda kitobat va noshirlik ishi. | Turkistonda kitobat , noshirlik ishi. | 4 |
| 9 | O'zbekistonda mustaqillik davrida noshirlik bo'yicha islohotlar va uning istiqboli. | Shoir, hikmatlari, to'rtliklar xalqchilligi. | 4 |
| 10 | Noshirlik ishi bo'yicha xalqaro va milliy qonunlar, ularning qiyosiy tahlili. | Noshirlik ishi bo'yicha xalqaro va milliy qonunlar, ularning qiyosiy tahlili. | 2 |
| 11 | Noshirlik va mediya industriya | Noshirlik va mediya industriya | 4 |
| 12 | Noshirlikda ixtisoslashuv | Noshirlikda ixtisoslashuv | |
| | | **Jami:** | **50 s.** |

**3. Mustaqil ta'lim ishlari**

| № | Mustaqil ta'lim mavzulari | O'quv mashg'ulot turi nomi | Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar) | Soatlar hajmi |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Noshirlik ishi tarixi, rivojlanish bosqichlari va istiqboli. | | Rivojlanish, istiqbol | 4 |
| 2 | Turkistonda kitobat va noshirlik ishi | | Turkiston, kitobat , noshirlik ishi | 6 |
| 3 | O'zbekistonda mustaqillik davrida noshirlik bo'yicha islohotlar va uning istiqboli | | O'zbekiston,mustaqillik noshirlik , islohotlar va uning istiqboli | 4 |
| 4 | Noshirlik ishi bo'yicha xalqaro va milliy qonunlar, ularning qiyosiy tahlili. | | xalqaro va milliy qonunlar | 6 |
| 5 | O'zbeksitonda ensiklopedik nashrlar tarixi, bugungi ahvoli va kelajagi. | | ensiklopedik nashrlar tarixi | 4 |
| 6 | Nashr jarayonining ijodiy bosqichlari | | Nashr,jarayon | 6 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 8 | O'quv adabiyotlari turlarini va ularning maqsad va vazifalarini ko'rsatish. | | O'quv, adabiyotlari, turlari | 6 |
| 9 | Badiiy asarlar turi, tili va uslubinn aniqlash. | | Badiiy asarlar turi, tili | 4 |
| 10 | Badiyi asar arxitektonikasi va unda foydalanilgan asos materiallarni tahlil qilish. | | Badiyi asar arxitektonikasi, undan foydalanilgan | 6 |
| 11 | Badiiy ocherk bilan publitsistik ocherkni qiyosiy tahlil qilish. | | Badiiy ocherk | 4 |
| 12 | Siyosiy mavzudagi matnni tahrir qilish | | Siyosiy ,mavzu,matn, tahrir qilish | 4 |
| | | | **Jami:** | **60 s.** |

**6. FANNING KURS ISHI MAZMUNI**

Kurs ishi (loyihasi) fan mavzulariga taalluqli masalalar yuzasidan talabalarga yakka tartibda tegishli topshiriq shaklida beriladi. Kurs ishi (loyihasi)ning hajmi, rasmiylashtirish shakli, baholash mezonlari ishchi fan dasturida va tegishli kafedra tomonidan belgilanadi. Kurs ishi(loyihasi)ni bajarish talabalarda fanga doir bilim,ko'nikma,malaka hosil qiladi.

**7. O'QUV ADABIYOTLARI VA AXBOROT MANBALARI**

**Asosiy adabiyotlar:**


1. Tohirov Z.T. Adabiy tahrir asoslari. Darslik. – T.: Tafakkur – Bo'stoni, Cho'lpon, 2012. - 320 b.
2. Tohirov Z.T. Nashr jarayoni asosiy bosqichlari. Darslik. – T.: Tafakkur – Bo'stoni, 2015. - 288 b.
3. Tohirov Z.T. Adabiy tur, termin, tahrir va muharrirlik mahorati. O'quv qo'llanma. – T.: Noshir, 2019. - 209 b.


**Qo'shimcha adabiyotlar:**


1. Ноширлик фаолияти тўғрисида. Ўзбекистон Республикасининг қонуни. Т.: Ўзбекистон, 1998.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев. "Ўзбекистон Республикасини ривожлантириш бўйича харакатлар стратегияси" тўғрисидаги фармон. (Халқ сўзи 2017, 8 – феврал).
3. Хайитметов А. Навоий даҳоси. - Т.: Ғафур Гулом, 1970.
4. Тохиров З.Т. Бадиий нутқда тасвир. Т.: Университет, 2011.
5. Сикорский А.М. Теория и практика редактирования. Москва: Высшая школа, 1980.
6. Редактирование отдельных видов литературы. Под.ред. А.М.Сикорского. – Москва: Высшая школа, 1973.
7. Беззубов А.Н. Введение в литературной редактирование. – Санкт-Петербург: 1997.
8. Данилов И.Е. Автора книги. – Москва: Книга, 1988.

9.Тохиров З.Т. Бадиий нутқ. Монография. – Т.: Фан ва технологиялар. 2017, - 240 б.

10.Тохиров З.Т. Тахрир мантиқи. Илмий-оммабоп. – Т.: Ўзбекистон. НМИУ, 2018 – 240 б.

**Internet saytlari**

1 http://natlib.uz –Alisher Navoiy nomidagi O`zbekiston Milliy kutubxonasi sayti
2 http://ensiklopediya.uz – O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi sayti
3 http://library.ziyonet.uz/ru/book/49178
4 https://ziyouz.uz/kutubxona/ziyouz/jahon-adabiyoti-483-ta/attachment/kutubxona-jahon-adabiyoti/?lng=lat
5 http://ziyonet.uz –O'zbekiston milliy ta'lim portali
6 http://kitob.uz/ - Respublika bolalar kutubxonasi
7 http://www.infolib.uz – Respublika Axborot kutubxona markazi
8 http://referatlar.uz –Referatlar, testlar, kitoblar va media ta`lim sayti
9 http://book.uz – Elektron adabiyotlar kutubxonasi
10 http://old.xs.uz/index.php/ homepage/ madaniyat/item/9576-joshlar-va- kitobkhonlik-madaniyati.
11 http://arxiv.uz – Referatlar arxivi
12 http://n.ziyouz.com/kutubxona/category/100-badiiy-kitoblar
13 http://kh-davron.uz/

## 8. O'QUV DASTURI HAQIDA MA'LUMOT

| |
|---|
| O'quv dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o`zbek tili va adabiyoti universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2022 yil "25" "08" "dagi "1" -sonli bayoni bilan tasdiqlangan. |
| "Amaliy filologiya" kafedrasi mudiri, f.f.d., professor<br>B.M.Mengliyev __________ *(imzo)* |
| **Tuzuvchi:**<br>Sh.B.Isayeva __________ *(imzo)*<br>"Amaliy filologiya" kafedrasi dotsenti, f.f.n. |
| **Taqrizchilar:**<br>O.To`rakulova \_\_\_\_\_\_\_\_\_\_ *(imzo)*<br>ToshDO`TAU "Amaliy filologiya" kafedrasi o`qituvchisi, f.f.d.(PhD);<br>M.Abdullayeva \_\_\_\_\_\_\_\_\_\_ *(imzo)*<br>ToshDO`TAU "O`zbek adabiyotini o`qitish metodikasi" kafedrasi mudiri f.f.d. |